
MUAMMONI BARTARAF ETISH CHORALARI KO'RILDI



MUAMMONI BARTARAF ETISH CHORALARI KO'RILDI

Ayni kunda Yangiariq mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi ariqni tozalash ishlari davom etmoqda. An'anaga aylanib qolgan ushbu ezgu amal, ya'ni hasharda mahallaning barcha fuqarolari, ayniqsa, yoshlar faol qatnashmoqda.

Mahalla raisi, Xalq deputatlari So'x tumani Kengashi deputati Amirali Safarovning so'zlariga ko'ra, ariqni tozalash barobarida uning ta'mirlash ishlari ham bajarilmoqda. Bu amallar sug'orish paytidagi turli nosozliklarni oldini olishga qaratilgan.

Ma'lum bo'lishicha, ariqni ta'mirlash jarayonida ariq tepasidagi tog' yon bag'rida joylashgan katta xajmdagi tosh ariqqa hamda aholiga xavf solayotgani aniqlanib, mahalla faollari va tuman Favquloda vaziyatlar bo'limi boshlig'i Jaoliddin Jalolov ishtirokida mazkur holatning bartaraf etish choralari ko'rildi.

Mahalla raisining so'zlariga ko'ra, hasharchilarning xavfsizlik choralari ko'rilgan va ularni oziq-ovqat bilan ta'minlash masalasi ham homiylar tomonidan amalga oshirilmoqda.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-03-19 16:43:15